



**Tadjqiqot.uz**



**ЎЗБЕКИСТОН  
ОЛИМЛАРИ ВА  
ЁШЛАРИНИНГ  
ИННОВАЦИОН  
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАРИ  
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**2021**

- » Хукукий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидаги изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



Crossref



31 OKTYABR  
**№33**

**CONFERENCES.UZ**

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 33-КЎП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ  
8-ҚИСМ**

---

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ  
33-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ  
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"  
ЧАСТЬ-8**

---

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN  
33-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE  
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
RESEARCH IN UZBEKISTAN"  
PART-8**

**ТОШКЕНТ-2021**



УУК 001 (062)

КБК 72я43

## **"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]**

**"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар"** мавзусидаги республика 33-қўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 октябрь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 11 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

### **1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

### **2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

### **3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

### **4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

### **5. Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

### **6. Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

### **7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



## **8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

## **9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

## **10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

## **11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

## **12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

## **13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

## **14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

## **15.Муסיқа ва ҳаёт**

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

## **16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

## **17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

## **18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

## **19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

## **20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

## **21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



## **22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

## **23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

## **24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

## **25.География**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

---

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

**PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев**

Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**АДАБИЁТ**

|                                                       |   |
|-------------------------------------------------------|---|
| <b>1. To‘xtaboyeva Muhayyoxon Odiljonovna</b>         |   |
| TIL IFODASI ALISHER NAVOIYNING ASARLARIDA .....       | 7 |
| <b>2. Turg‘unova Muhabbat Mamirjonovna</b>            |   |
| ZULFIYA IJODIDA HIJRON MAVZUSINING IFODALANISHI ..... | 9 |



## АДАБИЁТ

### ТИЛ ИФОДАСИ ALISHER NAVOIYNING ASARLARIDA

**To‘xtaboyeva Muhayyoxon Odiljonovna**

Qo‘qon shahar 7-umumta’lim maktabi

ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi

tel raqam:91-142-87-10

e-mail:muhayyoxonodiljonovna@inbox.uz

**Annotatsiya:** maqolada Navoiy asarlarida nutq madaniyati, tilga munosabatning ifodasi, til va uning imkoniyatlari, so‘z va gap kabi vositalarga qarashlar, ularning tildagi ahamiyati xususida mulohazalar berilgan

**Kalit so‘zlar:** tilshunos olim, til masalasi, so‘z qudrati, til buyukligi, mislsiz hazina

Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning milliy g‘ururi, shon-u-sharafini dunyoga tarannum qilgan o‘lmas san’atkordir. U so‘zning qudratini yuksaklarga ko‘tarib, tanasida joni bor inson doimiy so‘zga ehtiyoj sezishini, yomon so‘z insonni halok qilishini, yaxshi so‘z mo‘jiza ko‘rsata olishini ta’kidlaydi. Navoiy tilning jamiyatda tutgan o‘rnini nihoyatda yuksak baholab, hatto yaxshilik va yomonlik, baxt va baxtsizlik, insof va diyonat, vijdon va qabohat singari tushunchalarni ham so‘z bilan til elementlari bilan bog‘lab izohlagan. Navoiyning “Mahbub-ul qulub” asarida ham nutqning ko‘p fazilat va hislatlari ochib beriladi. Tilni ko‘ngil xazinasining qulfi va so‘zni shu “xazinaning kaliti” deb ta’riflab, til odobiga e’tibor berishni ta’kidlaydi. Qisqa va mazmunli, o‘rinli va mantiqli so‘zlashga chaqiradi, sergap, laqma, tiliga ortiqcha erk berganlarni, maqtanchiq, kibr-havoga berilganlarni tanqid qiladi. “Tilga ixtiyorsiz- elga e’tiborsiz”, - demak-ki, o‘z tiliga nisbatan soxta, loqaydlik bilan so‘zlash elga, ulusga, xalqqa nisbatan hurmatsizlik, e’tiborsizlikdan dalolat beradi. Navoiy asarlarida so‘z, nutq, til haqida quyidagi tanbehlar keltirilganligi fikrimiz isbotidir. “Tilning ixtiyorini qo‘lingda asragil; “So‘zingni ehtiyotlik bilan so‘zla”; “Vaqtida asrash kerak bo‘lgan so‘zni asrama; aytish kerak bo‘lmagan gapning yaqiniga yo‘lama”. So‘z – aniq badiiy janr turi sifatida Alisher Navoiy nazm va nasr janrlarining tili va uslubiga go‘yat e’tibor qilgan. Tirik insongina so‘zlash qobiliyatiga ega, so‘z tufayli u tirik ekanligini isbot etadi. So‘z do‘stdan, yor-u birodardan xabar beradi. Til deganda nutqni ko‘zda tutgan. Til, ya’ni so‘z o‘zining ko‘p yaxshi fazilatlarini bilan nutq uchun manbaa ekanligini, nutqning qo‘polligi, maqsadga muvofiq bo‘lmashligi so‘zlovchiga zarar yetkazishini alohida ta’kidlab o‘tadi. Yoqimli, shirali ovoz bilan so‘zlash odobi haqida, o‘ylamasdan so‘zlamaslik lozimligi haqida: “Tildin azubat dildisanddur va miynat sudmand. Chuchuk tilki achig‘liqqa evruldi, zarari oni bo‘ldi. Chuchuk so‘z sof ko‘ngullarga nushdir... So‘zni ko‘ngulda pishqormaguncha tilga kelturma, harnakim ko‘nglingda bo‘lsa tilga surma” deydi. Ma’nosi shuki, tilning yoqimli va shirin bo‘lishi foydadir. Chuchuk til achchiqqa aylansa tinglovchiga zarar yetkazadi. Nutqdan maqsad fikr anglatishdir. Muayyan tilning shakllanishi, riojanishi va sayqa topishda, shubhasiz, buyuk shaxslar-allomalar, shoirlar, yozuvchilar, mutafakkirlar, davlat arboblari, olimlarning salmoqli o‘rni bor. Shu o‘rinda bir necha ming yillik o‘z taraqqiyot yo‘liga ega. O‘zbek adabiy tilini rivojlanishi va sayqal topishida Alisher Navoiyning xizmatlari ulkandir. Alisher Navoiy asarlari tilida, jumladan, “Hayratul-abror” da ham qo‘llangan qadimgi turkiy leksikaning salmoqli qismi nafaqat eski o‘zbek adabiy tili, shuningdek, arab tili so‘z xazinasida hamon faol ishlatilayotgan leksik birliklar hisoblanadi. Navoiyning fikricha, til oddiy so‘zlashuv tili va badiiy til shakllariga ega. U asosan, ko‘p o‘rinlarda so‘z, til, lafz, lison, kalom, suxan va boshqalar haqida gapirganda badiiy tilni ko‘zda tutadi. Bizga ma’lumki, Alisher Navoiy asarlarida qaydlangan leksemalar bir necha mavzu guruhlariga asosida o‘rganilgan. Jumladan, o‘simlik, hayvonot dunyosiga oid so‘zlar, uy-ro‘zg‘or va xo‘jalikka doir, kiyim-kechak, ovqat va suyuqlik nomlari, hajm, o‘lchov sathiga aloqador nomlar, idish-tovoq nomlarini etimoni, ularning semantik



xususiyatlari haqida tadqiqotlar qilingan. Navoiy asarlarida shu mavzu guruhlar qatorida yana bir soʻzlar guruhini, aniqrogʻi, kishi tana aʼzolari nomlarini ham har tomonlama tadqiq etish maqsadga muvofiqdir. “Maʼlumki, oʻzlikni anglash milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar oʻrtasidagi ruhiy- maʼnaviy bogʻliqlik til orqali namoyon boʻladi”. Jamiki, ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Keltirilgan ezgu soʻz tushunchasi xalq uchun foydali boʻlgan fikrni ifodalagan, uni nutq odobi va madaniyatiga amal qilgan nutq hamda kishilarga manfaat keltiruvchi va taʼsir etuvchi, qolaversa, ularni tarbiyalovchi vosita, soʻz deb tushunmoq kerak. Alisher Navoiy nutq madaniyati va odobi haqida fikr yuritarkan, koʻp hollarda nutqni bezovchi, uning toʻgʻri va maqsadga muvofiq boʻluvchi xususiyatlarini taʼminlovchi tomonlarini taʼkdlashga alohida eʼtibor beradi. Navoiy oʻz asarlarida shaxsda nutq madaniyatini, tilga munosabat odobini tarbiyalash lozimligini qayta-qayta taʼkidlaydi. Navoiy oʻz asarlarida shaxsda nutq madaniyatini, tilga munosabat odobini tarbiyalash lozimligini qayta-qayta taʼkidlaydi. Buning uchun tilni, soʻzni koʻklarga koʻtarib maqtaydi, unga insonni hayvonot olamidan farqlashga, undan ustun turishga imkon bergan bir vosita deb qaraydi. Shu sababli u oʻz asarlarida tilni, uning imkoniyatlarini koʻklarga koʻtarib madh qiladi, soʻz va gapni, nutqni gavhar, dur, javohir deb ataydi. Hozirda nutq odobi deb yuritilayotgan nuqtai nazarlar juda qadimda yashab oʻtgan ajdodlarimizning tafakkuri mevasidir. Alisher Navoiy nutqning mazmundor boʻlishiga katta eʼtibor berarkan bunday til toshni eritadi, deya mubolagʻa ham qiladi. Aslida, bu yerda koʻchma, ramziy maʼno bor, yaʼni tosh-koʻngil qattiq shafqatsiz odamni yumshatadi, deyilgan maʼno bor. Bularning barchasi kishilarni tilni mukammal egallashga, undan toʻgʻri va unumli foydalanish, nutqni ezgu maqsadlarga yoʻnaltirishga boʻlgan chaqiriqlardir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Vohidov R., Neʼmatov H., Mahmudov M. Soʻz bagʻridagi maʼrifat. -Toshkent: Yozuvchi, 2001, 144 b.
2. Bekova N. Alisher Navoiy sheʼriyatida hamd poetikasi. -Toshkent: Fan, 2007, 192 b.
3. Alisher Navoiyning adabiy mahorati masalalari (maqolalar toʻplami) -Toshkent: Fan; 1993. 208 b.



## ZULFIYA IJODIDA HIJRON MAVZUSINING IFODALANISHI

**Turg'unova Muhabbat Mamirjonovna**

Marg'ilon shahar 1-IDUM

ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Tel:90-784-06-47

e-mail:turgunovamuhabbat@mail.ru

**Annotatsiya:** ushbu maqolada o'zbek adabiyotida vafo va sadoqat timsoli Zulfiyaxonimning lirikasi, uning she'riyatidagi asosiy mavzu bo'lgan hijronning ifodasi, ayriliq mavzulari tasviri xususida fikrlar, misollar keltirilgan va munosabat bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** she'riyat, she'r, hijron, vafo, ayol, sabr-qanoat, badiiylilik.

O'zbek adabiyotida shoiralar qatori talaygina. Lekin ularning orasida Zulfiyaxonim o'z ijodi bilan alohida ajralib turadi. Sababi Zulfiya sharq ayolining timsolidir. U vafodor ayol, mushtipar ona, hayotni, sevgi va sadoqatni kuylovchi ijodkor edi. Zulfiyaxonim O'zbekiston xalq shoirasi, Javoharlal Neru nomidagi va Xalqaro "Nilufar" mukofotining sovrindori, taniqli jamoat jamoat arbobi. Uning tinchlik va do'stlikni tarannum etuvchi asarlari hamda taraqqiyparvar Osiyo va Afrika yozuvchilari harakatidagi faol ishtiroki uchun xalqaro "Nilufar" mukofotiga sazovor bo'lgan. Mirtemir domla Zulfiyaning she'riyatga kirib kelishi haqida "O'zbek poeziyasida Zulfiya degan nomning chaqnab paydo bo'lishi tong yulduzining tug'ilishiga teng bo'lgan voqeadir" deb baho bergan edi. Zulfiyaxonim, haqiqatan, shunday yuqori bahoga munosib shoira edi. Hayotga bo'lgan kurashi bilan barcha o'zbek ayollariga o'rnak bo'la olardi. U o'zi haqidagi xotiralarida davrning, hayotning o'zi unga ustozlik qilganini tan oladi. Chin ma'noda, shoirani hayot shoira qildi. Butun ijodini Hamid Olimjon yodiga bag'ishladi. Umri davomida hijronni kuyladi. Go'yoki, hijron shoira uchun tasalli, hamdard, do'st edi.

Mana bir umrni yashadim sensiz,  
Qaytmas bahorlarning qaytishin kutib,  
Tobuting boshida cho'kkaninmda tiz ,  
Farzandlar ko'tardi qo'limdan tutib.

Zulfiya ayriliqdan yiqilganida farzandlari dalda bo'ladi. She'riyat qanot bo'ladi. Keyinchalik hayotda yashashning o'zi baxtligini his etgan shoira shukronalik hissi bilan yashayni ham o'rgandi. Qisqa turmushida sevis, sevilish baxti nasib etganidan, hatto sevgidan keyingi ayriliqni ham yashash baxti deb bildi.

Sevdim, erkalandim,  
Ayrildim,  
Kuydim,  
Izzat nima bildim,  
Shuda bir yashash.

Inson yashar ekan, hayot uni baxt bilan, baxtsizlik bilan siylaydi. Shoira hammasiga mardonavor turib, butun kuch-quvvatini ijodga bag'ishlaydi. Va "Iqrorga vaqt yetdi" she'rida shunday iqror bo'ladi:

Bor bo'lsa beshmi, o'n muxlis she'rxonim,  
Yozmoq – baxt qalamim uchini o'pib.

Zulfiya ijodida hamisha Hamid Olimjonning qalami hamroh bo'ladi. Ayriliq, hijron, vafo, sadoqat kuychisi sifatida she'riyat gulshanida ufurib turadi. O'zbek she'riyatini rivojiga ham o'z hissasini qo'sha olgan shoira o'zbek ayoli timsoli sifatida jahon minbarlarida tirib she'r o'qidi. She'rlari rus, ingliz, nemis, xitoy, arab, fors va boshqa tillarga tarjima qilingan. O'zbek shoirasining dunyo bo'ylab muxlislari bor. O'zbek she'riyatining jahonga yuz tutishida shoira ham o'rni bor. Zulfiya o'zining ana shunday betakror she'riyati bilan ajralib turadi.

Zulfiyaning "Bahor keldi seni so'roqlab" nomli she'rida Hamid Olimjon bahorni qanchalik sevishini, bahor ham Hamid Olimjonni sog'inganligini tasvirlaydi:

Qani men kelganda kulib qarshilab,  
Qo'shig'i mavjlanib bir daryo oqqan.  
Baxtim bormi deya, yakkash so'roqlab,  
Meni she'rga o'rab suqlanib boqqan.



Bu satrlardan nafaqat Hamid Olimjon bahorni, balki bahor uchun Hamid Olimjon ham baxt ekanligini zo‘r mahorat bilan ta’riflaydi. Uning ijodi va she’riyatining ilhomi Hamid Olimjon edi. Asosiy mavzui esa hijron nafasi. Zulfiyaxonimning she’riyati hijron, sog‘inch, ayriliq mavzularida yozilishiga qaramay, o‘quvchini zeriktirmaydi, qayta o‘qishga undaydi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsam, Zulfiyaxonim shoira sifatida ham, ayol sifatida ham, ona sifatida ham o‘zbek xalqining ulug‘ bir siymosi bo‘lib qalbimizda mangu qoldi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Adabiyot. 7-sinf. Darslik-majmua. (qayta ishlangan 2-nashri). T., «Sharq». 2009.
2. Zulfiya. Saylanma.Tong bilan shom aro T:-Sharq2006
3. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
4. [www.Ziyonet.Uz](http://www.Ziyonet.Uz)
5. <http://zulfiya.edunet.uz/> Zulfiya shioraning shaxsiy veb-shahifasi
6. <http://krzulfiya.narod.ru/> —Zulfiyaxonim Qizlaril nomli rasmiy vebsayt

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 33-КЎП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**(8-қисм)**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусахҳиҳ:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.10.2021

**Контакт редакций научных журналов. [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)**  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000